



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



№8  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 224 sahifa,  
1-avgust, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirli

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori modeli:<br>tizimli boshqaruv yondashuvi asosida shakllanishi.....                           | 14  |
| <b>Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Maraimova Muxtabar Pulatovna</b>                                                                           |     |
| O'smirlardagi nevroz holatining psixologik xususiyatlari.....                                                                                 | 20  |
| <b>Abduraximov Doniyor Abdusaid o'g'li</b>                                                                                                    |     |
| Ta'lim siyosati va o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishi:<br>xalqaro tajriba va o'zbekistonda amaliyot taqqoslamasi.....                      | 25  |
| <b>Ahadova Mushtariybonu Akmal qizi</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini<br>rivojlantirishning hozirgi holati va o'ziga xosligi .....          | 30  |
| <b>Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi</b>                                                                                                        |     |
| Ta'lim sifatini oshirishda "Barkamol avlod" bolalar maktablarining zarurati va ahamiyati .....                                                | 33  |
| <b>Eshmuminova Oybarchin Botirovna</b>                                                                                                        |     |
| Bolalarda nutq kamchiliklari: etiologiya, rivojlanish dinamikasi va erta aralashuv .....                                                      | 39  |
| <b>Isayeva Mushtariy Alisher qizi</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kitobxonlikka o'rgatish usullari .....                                                                       | 44  |
| <b>Maydonova Saboxat Sadulloyevna</b>                                                                                                         |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik vositasida badiiy adabiyot namunalari qiziqishni<br>shakllantirishning o'ziga xos jihatlari..... | 48  |
| <b>Mingbayeva Barno Ubaydullayevna</b>                                                                                                        |     |
| Pedagogical Characteristics in Enhancing Speaking Skills of Esp Learners<br>in English Language Classes Through Digital Technologies.....     | 52  |
| <b>Pardayeva Zulaykho Yusubjonovna</b>                                                                                                        |     |
| Nutq buzishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari .....                                                               | 55  |
| <b>Ruziyeva Guzal Shuxrat qizi</b>                                                                                                            |     |
| "Biologik savodxonlik" tushunchasi zamonaviy ta'lim paradigmasi kontekstida .....                                                             | 59  |
| <b>Umaraliyeva Mamura Tashxodjayevna</b>                                                                                                      |     |
| O'qituvchi faoliyatida kasbiy madaniyatning o'rni .....                                                                                       | 65  |
| <b>Umarova Feruzabonu Bobir qizi</b>                                                                                                          |     |
| Gamifikatsiyalangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining 11–12 yoshli o'quvchilarda<br>emotsional barqarorlikka amaliy ta'siri.....            | 68  |
| <b>Tojiyev Baxriddin Baxtiyorovich</b>                                                                                                        |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 72  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Media va axborot savodxonligi 21-asr pedagoglarning asosiy kompetensiyasi sifatida.....                                                       | 76  |
| <b>Boypolvonov Barot Djonqobulovich</b>                                                                                                       |     |
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini takomillashtirishning<br>lingvistik va lingvometodik talqini.....             | 81  |
| <b>Ismoilova Zarnigor Raximjon qizi</b>                                                                                                       |     |
| O'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlar va an'analarga hurmat ruhida tarbiyalashning nazariy asoslari .....                                     | 86  |
| <b>Isokov Ravshanbek Ulug'bek o'g'li</b>                                                                                                      |     |
| Pedagogik faoliyatda stress namoyon bo'lishiga ijtimoiy omillarning ta'siri .....                                                             | 90  |
| <b>Jumanova Ug'loy Sodiqjonovna</b>                                                                                                           |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassislik yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitishni takomillashtirish.....                                    | 96  |
| <b>Koshayeva Sansabila Kamiljanovna</b>                                                                                                       |     |
| Ijtimoiy-ekologik madaniyatni rivojlantirishda xalqaro tajribalar va ta'lim jarayonining o'rni.....                                           | 100 |
| <b>Mamajonova Fotimaxon O'ktamovna</b>                                                                                                        |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishning ahamiyati .....                                      | 105 |
| <b>Murodova Madina Karim qizi</b>                                                                                                             |     |
| Elektrotexnika va elektronika fanini o'qitishning zamonaviy metodlari .....                                                                   | 108 |
| <b>Ortiqov Mironshoh Sodiqovich</b>                                                                                                           |     |



|                                                                                                                                                                            |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda<br>Blended learning texnologiyasini O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga tatbiq etish..... | 110 |
| <b>Pakirdinova Sharofat Abdumutaljonovna</b>                                                                                                                               |     |
| O'zbekistonda ta'lim sohasi bo'yicha strategik dasturlarni ishlab chiqish istiqbollari.....                                                                                | 115 |
| <b>Quronboyeva Mavluda Bahodirovna</b>                                                                                                                                     |     |
| Xalqaro baholash dasturlari va neyropedagogika .....                                                                                                                       | 120 |
| <b>Sidiqova Yulduz Sobirovna</b>                                                                                                                                           |     |
| 6-sinf o'quvchilarida matn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish metodikasi .....                                                                                      | 123 |
| <b>Xamroyeva Dilnoza Jahongir qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Talabalarda pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati .....                                                                         | 128 |
| <b>Yusupov Ulug'bek Kadirovich</b>                                                                                                                                         |     |
| Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchi ma'naviy kamolotini ta'minlashda<br>motivatsiya uyg'otish texnologiyalarini takomillashtirish .....                                      | 132 |
| <b>F. Zaynabuddinov</b>                                                                                                                                                    |     |
| Развитие поликультурной компетентности студентов в образовательной среде вуза .....                                                                                        | 135 |
| <b>Киреева Эльвина Фларитовна</b>                                                                                                                                          |     |
| Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda pedagogik xususiyatlar .....                                                                                                 | 140 |
| <b>Sanayev Gayrat Shermuxamedovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot madaniyatini tarbiyalashning<br>pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish .....                                                      | 144 |
| <b>Boybo'riyeva Saodat O'ralovna</b>                                                                                                                                       |     |
| Kattalar ta'limi texnologiyasi: muammolar, yondashuvlar va rivojlanish yo'nalishlari .....                                                                                 | 148 |
| <b>Davletova A.</b>                                                                                                                                                        |     |
| Yangi O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirishning huquqiy asoslari .....                                                                                           | 152 |
| <b>G'aniyeva Gulrux Tavakkaljon qizi</b>                                                                                                                                   |     |
| Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarni ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish .....                                                      | 156 |
| <b>Madmarova Gulchexra Qodirovna</b>                                                                                                                                       |     |
| O'lkashunoslik materiallarining oliy ta'lim jarayonida tarbiyaviy salohiyatini ochib berish .....                                                                          | 160 |
| <b>Mamajonov Mo'minjon</b>                                                                                                                                                 |     |
| Muhandislik grafikasi darslarida o'quv faoliyatining shaxsga yo'naltirilgan innovatsion modeli .....                                                                       | 165 |
| <b>Mamasidikova Gulnora Muhammad qizi</b>                                                                                                                                  |     |
| Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy resurslarning pedagogik imkoniyatlari.....                                                                                          | 169 |
| <b>Muhiddinov Muhiddin Nuriddin o'g'li</b>                                                                                                                                 |     |
| Ijod maktablari o'quvchilarining badiiy-ijodiy kompetensiyasini rivojlantirishda<br>interfaol metodlarning ahamiyati.....                                                  | 173 |
| <b>Nurmatova Shohistaxon Muhammadjonovna</b>                                                                                                                               |     |
| Voleybolchi qizlarni tayyorlashning differensial vositalaridan foydalanish zarurligini,<br>ularning o'yin amplusini hisobga olgan holda aniqlash usullari .....            | 178 |
| <b>Odilova Feruzaxon Valijon qizi</b>                                                                                                                                      |     |
| PIRLS baholash tizimini qo'llash vositasida mustaqil o'qishga o'rgatishda<br>IMEN texnologiyalaridan foydalanish.....                                                      | 184 |
| <b>Olimjonova O'g'ilxon Abdurasul qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| Yoshlar o'rtasida internet qaramligi va ijtimoiy izolyatsiya<br>zamonaviy Maugli sindromining klinik ko'rinishlari .....                                                   | 188 |
| <b>Polvanov Rasulbek Baxtiyarovich</b>                                                                                                                                     |     |
| Boshlang'ich maktabda o'zbek tili darslarida differensial ta'limdan foydalanishning<br>pedagogik shart-sharoitlari .....                                                   | 192 |
| <b>Rasulova Nozigul Abdivahid qizi</b>                                                                                                                                     |     |
| Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini takomillashtirish .....                                                              | 196 |
| <b>Sharfova Nilufar Ilhom qizi</b>                                                                                                                                         |     |
| Xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim samaradorligini oshirishning<br>pedagogik shart-sharoitlari (PIRLS misolida).....                                               | 200 |
| <b>Tuxtasinova Munira Ibragimovna</b>                                                                                                                                      |     |
| Fransuz tili darslarida tabiatshunoslik atamalarini boshlang'ich sinflarda shakllantirish<br>va o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari.....                                | 204 |
| <b>Umarova Madinabonu Bahodir qizi</b>                                                                                                                                     |     |



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| O'smir psixologik salomatligini barqarorlashtirishda art-terapiyadan foydalanishning imkoniyatlari .....                                    | 208 |
| <a href="#">Yusupxodjayeva Umida Baxodir qizi</a>                                                                                           |     |
| Nofillologlarni (filolog bo'lmaganlarni) kasbiy aloqa madaniyatiga o'rgatish maqsadida zamonaviy ingliz tilining lingvometodik tahlili..... | 214 |
| <a href="#">Zarina Itolmasova</a>                                                                                                           |     |
| Forsayt va qaror qabul qilishni bog'lovchi kognitiv komponentlar.....                                                                       | 219 |
| <a href="#">Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</a>                                                                                              |     |

# KATTALAR TA'LIMI TEKNOLOGIYASI: MUAMMOLAR, YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Davletova A.

Berdaq nomidagi QQDU tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kattalar ta'limi texnologiyalarining nazariy asoslari, zamonaviy yondashuvlari va amaliy tatbiqlari ko'rib chiqiladi. Kattalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, motivatsiyasi hamda texnologik yondashuvlar asosida qanday qilib samarali ta'lim jarayonini tashkil etish mumkinligi yoritiladi. Shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar va O'zbekistonda qo'llanilayotgan amaliyotlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** andragogika, texnologiya, masofaviy ta'lim, Moodle, Zoom, Google Classroom, kooperativ va interaktiv o'qitish, raqamli o'quv.

**Abstract:** This article explores the theoretical foundations, modern approaches, and practical applications of adult education technologies. It highlights the specific characteristics and motivations of adult learners, as well as how to organize an effective educational process based on technological approaches. In addition, advanced international experiences and current practices applied in Uzbekistan are analyzed.

**Key words:** andragogy, technology, distance education, Moodle, Zoom, Google Classroom, cooperative and interactive teaching, digital learning.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются теоретические основы, современные подходы и практические применения технологий образования взрослых. Освещаются особенности учебной деятельности взрослых, их мотивация, а также организация эффективного образовательного процесса на основе технологических подходов. Также анализируется передовой зарубежный опыт и практики, применяемые в Узбекистане.

**Ключевые слова:** андрагогика, технологии, дистанционное обучение, Moodle, Zoom, Google Classroom, кооперативное и интерактивное обучение, цифровое обучение.

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda inson hayoti davomida o'qib-o'rganishga ehtiyoj sezadi. Kattalar ta'limi nafaqat kasbiy rivojlanish, balki shaxsiy taraqqiyot, ijtimoiy moslashuv va hayot sifati uchun ham muhim omil hisoblanadi. Global raqobat, raqamli transformatsiya va demografik o'zgarishlar sharoitida kattalar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida yuz berayotgan islohotlar va global o'zgarishlar, ayniqsa, katta yoshdagi shaxslarning ta'limga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshirmoqda. Umrbod ta'lim g'oyasi asosida inson hayotining turli bosqichlarida kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun qayta-qayta o'qish zarurati yuzaga kelmoqda. Shu bois, kattalarni o'qitish – bu alohida yondashuv va texnologiyalarni talab qiluvchi pedagogik jarayon hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan, kattalar ta'limini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ammo ushbu jarayonda foydalanilayotgan texnologiyalar, metodik yondashuvlar va amaliy mexanizmlarning chuqur tahliliga ehtiyoj mavjud.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy olimlar A. Kapp, M. Sh. Noulz, M. Forner, J. Dyui, E. Limdemann, E. Torndayk, N. Gruntvig, M. Xaydegger, K. Yaspers, J. P. Sartr, Y. N. Dyusher, D. V. Lorens, T. G. Braje, E. Erikson, R. Gould, O. Brim, Markinsney, H. Garner, Donaldson, Vigotskiylarning ilmiy izlanishlarida, shuningdek, M. Noulzning "Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika" nomli asarida andragogikaning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari yoritilgan.



Doktor Jon A. Henshke o'zining maqolasida andragogikaning shakllanish bosqichlarini keng tahlil qilib bergan. Pedagogik malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari tinglovchilarini innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mavzusiga doir tadqiqotlar MDH olimlari tomonidan ham olib borilgan. Rossiyalik tadqiqotchilar S. N. Gabrov, T. A. Vasilkova, S. I. Zmeyov ilmiy ishlarida yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida katta yoshlilar ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi, inson hayotining turli bosqichlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi, uzluksiz ta'lim g'oyalari asoslanganligi hamda andragogikaning mustaqil fan sifatida qabul qilinishi yoritilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'qitish texnologiyasi mohiyatan o'quv jarayonining barcha, ayniqsa, faol elementlari harakatlari va o'zaro ta'sirlarining muayyan tizimini nazarda tutuvchi o'qitish jarayonini tashkil etishni anglatadi. Shu o'rinda ikki jihatni ta'kidlab o'tish lozim. Birinchidan, o'qitish texnologiyasi nafaqat ta'lim beruvchining, balki eng avvalo, ta'lim oluvchining harakatlar tizimini batafsil ko'rib chiqadi. Ikkinchidan, u to'g'ri bajarilganda ma'lum natijaga erishishni ta'minlaydi.

Zamonaviy fan va amaliyot o'z arsenalida ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning har qanday ehtiyojlarini amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan texnologiyalarning sezilarli xilma-xilligiga ega. Kattalarni o'qitish texnologiyasi – o'qitish jarayonining asosiy bosqichlari bo'yicha guruhlangan ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilarning muayyan operatsiyalari, texnik harakatlari va funksiyalari tizimidan iboratdir. Katta yoshdagi insonlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: yo'nalishni aniqlash, motivatsiya, bilish zarurati, tayyorgarlik, tajriba, o'z-o'zini boshqarish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Andragogika – bu kattalar ta'limining nazariyasi va amaliyotini o'rganuvchi soha bo'lib, pedagogikadan farqli jihatga ega. Uning asoschisi M. Knowles bo'lib, u quyidagi tamoyillarni ilgari surgan: kattalar – mustaqil va tajribali o'rganuvchilar; ular o'rganishga ichki ehtiyoj asosida yondashadilar; o'rganish real hayotga bevosita bog'liq bo'lishi kerak; ta'limda muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan yondashuv ustuvor. Shu bilan bir qatorda, kattalar ta'limida motivatsiya juda muhim rol o'ynaydi. Ular quyidagi sabablarga ko'ra ta'limga qatnashadilar: ish bilan bog'liq malaka oshirish ehtiyoji; shaxsiy o'sish va rivojlanish istagi; ijtimoiy faollikni oshirish; yangi texnologiyalarni o'zlashtirish zarurati.

Katta yoshdagilarning samarali ta'lim olish muammosi kontekstida "o'quvchilarning qobiliyatlari, ma'naviyati, mustaqilligini shakllantirish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini o'zi anglash istagini rivojlantirish uchun maqbul shart-sharoitlarni yaratish uchun o'quv jarayonining mazmuni va tashkil etilishini o'zgartirish"ni o'z ichiga olgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari qiziqish uyg'otadi. Ular orasida O.A. Ivanova quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- modulli o'qitish texnologiyasi;
- modulli-reytingli o'qitish texnologiyasi;
- o'qitishning modul-kredit texnologiyasi;
- moslashuvchan o'qitish tizimi;
- to'liq o'zlashtirish texnologiyasi;
- turli darajadagi o'qitish texnologiyasi;
- individual ta'lim trayektoriyalari texnologiyasi;
- paratsentrik o'qitish texnologiyasi;
- nazorat-tuzatish texnologiyasi;
- o'qitishning individual-brigada texnologiyasi;
- o'qitishning brigada-individual texnologiyasi.

Tarixan ta'limdagi loyihalar haqida J.J. Russo, I.G. Pestalotssi, F.A. Disterveg, K.D. Ushinskiylar gapira boshlagan. XX asrning 20-yillarida Amerika maktabi vakillari – dastlab J. Dyui, so'ngra U. Kilpatrik – o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish maqsadida muammolarni hal qilish metodi sifatida loyiha texnologiyasini joriy

etdilar. Kattalarni loyiha texnologiyalari orqali o'qitishda o'quvchining o'zi loyiha muallifi bo'lishi inobatga olinadi. Shuning uchun o'qituvchining faoliyati – muammoni topish uchun sharoit yaratish, loyihalashda zarur yordam ko'rsatish, vositalar, metodlar va usullarni tanlashda ko'maklashishdan iborat bo'ladi. Loyihani ishlab chiqishda pedagoglarning kasbiy qiziqishlari hisobga olinishi kerak. Katta yoshdagilarni o'qitishda loyihalar ustuvor faoliyat usullariga ko'ra bo'linishi mumkin. Masalaga chuqurroq yondashilsa, loyiha amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, ma'lum algoritmlar asosida amalga oshiriladi.

Onlayn ta'lim o'zining imkoniyatlari va mavjudligi bo'yicha klassik, kunduzgi ta'limdan qolishmaydi va ushbu masalada yetakchi o'rinni egallaydi. Masofaviy ta'lim olish imkonini beruvchi platformalarning paydo bo'lishi bilan nafaqat talabalar, balki maktab yoshidagi shaxslar hamda zamonaviy dunyo voqeliklaridan ortda qolishni istamaydigan allaqachon ishlayotgan avlodlar orasida ham ushbu ta'lim turiga bo'lgan talab ortib bormoqda. Masofaviy ta'lim o'qitishning mustaqil shakli bo'lib, o'qituvchi va ta'lim oluvchining o'zaro hamkorligini nazarda tutadi. 1980-yillarning oxirida birinchi shaxsiy kompyuterlar paydo bo'ldi va ular masofaviy ta'limni soddalashtirdi. XXI asrda kompyuterlar va internetni avtomatlashtirish ushbu ta'lim turining tarqalishi va undan foydalanishni sezilarli darajada soddalashtirdi. Mamlakatimizda barcha turdagi ta'lim tizimlari xalqaro andozalarga mos ravishda ishlab chiqilgan. Onlayn kurslar, turli o'quv portallari, videokonferensiyalar, test sinovlari katta shuhrat qozondi.

Texnologiya so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tilsa, ushbu atama yunoncha "tehnos" – mahorat, san'at va "logos" – ta'limot, fan so'zlaridan tashkil topgan. Demak, texnologiya atamasi boshqa terminlar bilan qo'shilib, shu sohani rivojlantirish va mahoratini oshirish vazifasini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya – sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir. An'anaviy yondashuvlar o'qituvchi-o'quvchi munosabatiga asoslangan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tayangan holda interaktiv va individual yondashuvni nazarda tutadi. Masofaviy ta'lim texnologiyalari (Moodle, Zoom, Google Classroom) yordamida kattalar ish bilan bir qatorda o'qish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bu ayniqsa pandemiya davrida o'zining dolzarbligini namoyon etdi. Raqamli kutubxonalar, mobil ilovalar va video darslar mustaqil o'qish uchun samarali resurslardir. Kattalar ko'pincha o'ziga qulay vaqtda, o'z tezligida o'rganishni afzal ko'radilar.

Kattalar real hayotdagi muammolar asosida bilim olishga intiladilar. Shu sababli, muammoli vazifalarni hal qilish va loyihalar ishlab chiqish samarali o'qitish usuli hisoblanadi. "Peer-to-peer" o'rganish, guruhda ishlash, rolli o'yinlar orqali ta'lim o'zaro almashuv va tajriba asosida tashkil etiladi. Bu o'zaro fikr almashishni, refleksiya va mustahkam o'zlashtirishni ta'minlaydi. Moodle asosidagi modulli ta'lim texnologiyasi esa ta'limni qismlarga ajratib, har bir moduldan so'ng natijalarni baholash imkonini beradi. Bu o'quvchilarni mustaqil o'rganishga rag'batlantiradi. Kattalar ta'limida mavjud muammolar – vaqt yetishmovchiligi (ish, oila, ijtimoiy majburiyatlar), moliyaviy to'siqlar (ta'limning qimmatligi), psixologik to'siqlar (o'ziga ishonch yetishmasligi), axborot texnologiyalariga kirish imkoniyati pastligi – yechimlar orqali bartaraf etilishi mumkin. Yechimlar qatoriga moslashuvchan jadval va masofaviy kurslar, davlat granti va subsidiyalari, kattalar uchun psixologik qo'llab-quvvatlov hamda mobil va qulay texnologik platformalarni kiritish mumkin. Xorijiy tajriba misolida Germaniyada ikkilik (duallik) tizim orqali ish va ta'lim uyg'unlashtirilgan bo'lib, yoshlar va kattalar bir vaqtning o'zida ishlab, o'rganadilar. Bu metod iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Janubiy Koreyada esa raqamli platformalar orqali umrbod o'rganish konsepsiyasi joriy qilingan bo'lib, har bir fuqaroga bepul onlayn kurslar taqdim etiladi. O'zbekistonda "Professional ta'lim markazlari" va "Ishga marhamat" monomarkazlari orqali turli yoshdagi fuqarolar yangi kasb-hunarlarini egallamoqdalar, biroq metodik va texnologik jihatdan yangilanishga ehtiyoj mavjud.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Kattalar ta'limiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish murakkab hamda uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u bir qator o'ziga xos muammolarni yuzaga keltiradi. Ushbu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining texnologiyaga bo'lgan yondashuvi, uni o'zlashtirishga tayyorligi va eng asosiysi, texnologiyani joriy etishga sarflanadigan vaqt bilan ta'lim sifati o'rtasidagi muvozanatni to'g'ri belgilashiga bog'liq. Amalda ta'lim texnologiyalarining samaradorligi, avvalo, kattalarni o'qitishning psixologik, ijtimoiy va metodik xususiyatlarini chuqur anglashga tayanadi. Shu bilan birga, texnologiyalarni o'quv jarayoniga maqsadli, mos va adekvat ravishda tatbiq etish ulkan samaradorlikni ta'minlaydi.

Kattalar ta'limi hozirgi kunda nafaqat shaxsiy intellektual o'sish vositasi, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida strategik resurs sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ta'lim yondashuvlari individual ehtiyojlarga moslashtirilgan o'quv kontentini yaratish, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish, motivatsiyani oshirish va mavjud to'siqlarni kamaytirish orqali samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Shu asosda quyidagi



amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin: birinchidan, O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan raqamli ta'lim platformalarini ishlab chiqish va joriy etish; ikkinchidan, o'qituvchilar uchun andragogika yo'nalishida maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish; uchinchidan, ta'lim natijalarini baholashda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni keng joriy etish; to'rtinchidan esa, ish beruvchilar bilan hamkorlikda malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarur. Bularning barchasi kattalar ta'limi sifatini oshirish, uning jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyotiga qo'shadigan hissasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Knowles, M. (1984). The Adult Learner: A Neglected Species. Houston: Gulf Publishing.
2. Merriam, S.B., & Bierema, L.L. (2014). Adult Learning: Linking Theory and Practice. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Dunyo andragogika markazlari faoliyatiga oid tahlillar – YUNESKO hisobotlari, 2021.
4. Brookfield, S. D. (2013). Powerful Techniques for Teaching Adults. San Francisco: Jossey-Bass.
5. Knowles, M. S. (1980). The Modern Practice of Adult Education: From Pedagogy to Andragogy. New York: Cambridge Books.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №8**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.